



PARTICIPATION OF UZBEK PARTISAN IN THE LIBERATION OF THE TERRITORY OF THE FORMER EASTERN EUROPE AND SOUTHEASTERN EUROPE

(Czechoslovakia and Yugoslavia)

Mirjalal Kasimov

Lecturer

National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: World War II, Czechoslovakia, Yugoslavia, partisan detachments, "Partisan Medal" of the Patriotic War, partisan

Received: 15.06.24

Accepted: 17.06.24

Published: 19.06.24

Abstract: The article focuses on the partisan movement, one of the most important aspects of the war after Nazi Germany invaded the USSR, analyzing the activities of Uzbek fighters who took part in the resistance in the partisan units in Czechoslovakia and Yugoslavia through sources and literature published in various periods. The article also reveals the heroism of former Uzbek fugitives who joined partisan units.

O'ZBEKİSTONLIK PARTİZANLARNING SHARQIY YEVROPA VA JANUBİY-SHARQIY HUĐUDINI OZOD ETİSHDAGI İSHTIROKİ (Chexoslovakiya va Yugoslaviya misolida)

Mirjalol Qosimov

o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ikkinci Jahon urushi, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, sobiq asirlar, partizan otryadlari, "Vatan urushi partizani" medali, partizan.

Annotatsiya: Mazkur maqola fashistlar Germaniyasining Chexoslovakiya va Yugoslaviya hududlarini bosib organidan keyin ushbu davlatlardagi partizanlik bo'linmalarida qarshilik harakatida ishtirok etgan o'zbekistonlik jangchilar faoliyati turli davrda chop etilgan adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Maqlada ushbu ikki davlat hududidagi partizanlik bo'linmalarini tarkibiga o'zbekistonlik asirlikdan qochgan sobiq jangchilarning qo'shilishi ham ularning

УЧАСТИЕ УЗБЕКИСТАНСКИХ ПАРТИЗАН В ОСВОБОЖДЕНИИ ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЫ И ЮГО-ВОСТОЧНЫХ ТЕРРИТОРИЙ (в примере Чехословакии и Югославии)

Мирджасалат Касимов

преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, Чехословакия, Югославия, бывшие военнопленные, партизанские отряды, медаль «Партизан Отечественной войны», партизан.

Аннотация: В данной статье на основе литературы, изданной в разные периоды, анализируется деятельность узбекских бойцов, принимавших участие в движении сопротивления в партизанских отрядах этих стран после оккупации территорий Чехословакии и Югославии нацистской Германией. В статье раскрывается вхождение в состав партизанских отрядов на территории этих двух стран бывших бойцов, сбежавших из плена, и их героизм.

KIRISH

Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan Ikkinci Jahon urushi boshlanmasdan avval G‘arb mamlakatlari Gitlerni tinchlantirish va uning agressiyasini sharqqa, Sovet Ittifoqiga burib yuborish maqsadida birinchilardan bo‘lib Chexoslovakiyani “qurban” qilishni afzal ko‘rishgan bo‘lsa, Yugoslaviya hududlari vermaxt qo‘sishnlari tomonidan 1941-yilning bahorida egallab olingan. Bosib olingan hududlardagi ozodlik harakatini susaytirish maqsadida, bu ikki davlatni bir qancha mayda qismlarga bo‘lib tashlashadi (Chexoslovakiya o‘rnida Chexiya va Bogomeya protektoratini tuzishgan). Lekin bu harakatlar ushbu ikki mamlakatlardagi milliy ozodlik harakatini “bo‘g‘ib” qo‘ya olmadi. Chexoslovakiya va Yugoslaviya hududlarida bir necha yuzlab partizanlik otryadlari tashkil etilgan.

ASOSIY QISM

Sobiq Ittifoq hududidagi partizanlik harakati safidagi o‘zbekistonlik faoliyatini o‘rganish statistic sharhlar, xorij tarixchilar va mahalliy tarixchilar asarlari birlamchi manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalarda o‘zbekistonlik jangchilarining partizan otryadlari safiga kelib qo‘silishi, harbiy harakatlardagi faoliyati keltirilgan. Shuningdek, T.D.Djurayev (1975), M.I.Semiryaga (1963), V.N.Kazak (1975), Y.I. Bakman (1974), M.Rahimov (1989) kabi mualliflar o‘z tadqiqotlarida o‘zbekistonlik jangchilarining partizanlik harakatidagi faoliyatiga to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, masalan ayrim jihatlari haqida muhim ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Mazkur maqolani yozishda qiyosiy tahlil, muammoviy va miqdoriy tahlil, tizimlik jamlash kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Janubiy – sharqiy yevropadagi eng yirik qarshilik ko‘rsatish harakati Chexoslovakiya va Yugoslaviya hududida amalga oshiriladi. 1944-yilning boshida Chexoslovakiya hududida 27 mingda ortiq chexoslovak va sovet partizanlari faoliyat yurtigan. Slovakiya hududida Sovet hokimiyyati tomonidan SSSR hududidi to‘liq ozod etilgach Chexoslovakiya hukumatining iltimosiga binoan Ukrainadagi partizanlik brigadasi rahbari A.F.Yegorovning qo‘poruvchilik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari andijonlik Aleksey Semenovich Yegorov desant qilib tashlanadi va uning rahbarligida 1 – Chexoslavak partizanlar brigadasi tashkil etiladi [1, –Б. 7].

1944-yilning yozida A.F.Yegorev boshchiligidagi 22 nafar sobiq partizanlar Chexoslovakiyaning Prshavo hududida yuboriladi. Ularga vazifa sifatida partizan brigadasi tashkil etish va 1944-yilning 29-avgustida Slovakiyada ommaviy qo‘zg‘olon ko‘tarish vazifasi qo‘yiladi. Uning rahbarligida partizanlar Slovakiya hududida partizanlar 21 ta ko‘prik va dushmanning 20 ta harbiy poyezlarini portlatib yuboradi. Chexoslovakiya hududlari ozod etilgach bo‘linmaning barcha jangchilari chexoslavak hukumati tomonidan orden va medallar bilan mukofotlanadi. Hatto uning nomi bilan ataluvchi “Yegorov yulduzi” ordeni ta’sis etiladi.

Ikkinci Jahon urushi yillaridagi ko‘rsatgan jasoratlari uchun A.F.Yegorov ikkita “Lenin “ordeni, “Oltin Yulduz” medali, “Qizil bayroq” ordeni, 1-darajali “Vatan urushi partizani” medali, “Kavkaz mudafaasi uchun” medali hamda Chexoslovakiyaning yuksak unvonlari – Yan Jijka ordeni, ikkita harbiy xoch, ikkita “Chexoslovakiya partizani” ordeni va Fransiyaning “Viktoriya” medali bilan taqdirlangan.

Chexoslovakiya hududida 1943-yilning oxirida katta leytenant Nikoly Valdimirovich Donsov tomonidan 57 nafar harbiy asirdan iborat bo‘lgan “Pobeda” partizanlik otryadini tashkil etadi. N.V.Donsov 1-Belorussiya frontidagi 69-Armianing 151-o‘qli dviziya tarkibida jang qilib, 1942-yil 1-avgustida Rostov uchun bo‘lgan janglarda og‘ir yaralanib nemislarga asir tushadi. Asirlikdan qochib o‘zbek, rus, ukrain, qozoq, qalmoq va boshqa millatga mansub jangchilardan iborat partizanlar guruhini tuzib, unga rahbarlik qiladi. Keyinchalik 184 kishidan iborat ushbu otryad front chizig‘i yaqinidagi “10 – partizan brigadasi” tarkibiga borib qo‘shiladi

1944-yilning 29-avgustida Slovakiyada fashistlarga qarshi umummiliy qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Ushbu qo‘zg‘olon Chexoslovakiya hududida faoliyat olib borayotgan chex, polyak, yugoslav, bolgar va sovet partizanlari mahalliy aholi yordamida ko‘tariladi [2, –С. 260]. Ushbu qo‘zg‘olonda o‘zbekistonlik partizanlar ham faol ishtirok etadilar. Yangiyo‘llik Kostantin Danilov 1943-yilda Xarkov shahri yaqinida bo‘lgan janglarning birida og‘ir yarador bo‘lib dushmanlar tomonidan asirga olinadi. Asirlikda 1943-yilning dekabridan – 1944-yilning

fevraliga qadar Janko, Kostansi va Ploeshti shaharlardagi lagerlarda saqlanadi. 1944-yilning fevralida Dmitriy Kuzmenko va Nikolay Golodnov bilan birgalikda asirlikda qochib, Chexoslovakianing shimolidagi A.Vlechko rahbarligidagi partizanlar safiga qo'shiladi[3, –C. 8].

1944-yilning sentabrida bo'lgan janglarning birida A.Vlechko halok bo'lgach otryadga K.Danilov rahbarlik qiladi. Komandirlarga xos bo'lgan mahorat ko'rsatib bir jangning o'zida dushmanning 300 dan ortiq zabit va askarlarini yo'q qiladi. 1944-yilning oxirida Ukraina Pratizanlik Markaziy Shtabi tomonidan Slovakiyadagi 2-partizan otryadi komandiri etib tayinlanadi. Chexoslovakianing milliy qahramonliklari uchun keyinchalik ushbu otryadga Chexoslovakianing milliy qahramoni Yan Shverm nomi beriladi[4, –C. 137]. 1964-yilda Slovakiyadagi milliy qo'zg'olon ko'tarilganligining yigirma yilligida partizan otryadi komandiri K.Danilov Slovakiyaga tashrif buyurib quroldosh do'stlari bilan uchrashadi.

1944-yilda Slovakiyada fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'olonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri Vasiliy Feodorovich Melnikov, Raimboy Allamov, Abdulla Narzullayev va Roziq Hamroyevlar ishtirok etdi [5, –B. 179].

1945-yilning fevralida K.K.Popov qo'mondonligidagi 2-slovak partizan otryadi tarkibiga Abduraxmon O'rozniyov dushman asirligidan qochib qo'shiladi.batalon komandiri qilib tayinlangan A.O'rozov temir yo'l va dushmanning harbiy texnikasini portlatish bilan shug'ullanadi. Chexoslovakija nemis bosqinchilaridan ozod etilgach A.O'rozboev O'zbekistonga qaytib kelib o'qituvchilik bilan shug'ullanadi [6, –C. 266].

1945-yilning martida chex hukumatining iltimosiga binoan Sovet hukumati tomonidan partizanlar orasida aloqalarni amalga shirishni taminlovchi 13 kishidan iborat "Praga uchun" partizan aloqachilar otryadi tashkil etiladi. Ular orasida o'zbekistonliklardan Alixon Qoshiqov (Koshikov) bor edi. Uning otryadi Kout tumanidagi Melixovsk o'rmonidagi partizanlar orasida aloqani o'rnatadi. Berilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajargani uchun 1944-yilning 25-noyabrida M.I.Kalinin nomidagi partizan otryad a'zosi A.Qoshiqov Ukraina partizanlik markaziy shtabi rahbari general-leytenant T.A.Strokach tomonidan 2-darajali "Vatan urushi partizani" medali bilan taqdirlangan [7, –C. 141].

Polsha va Chexoslovakija hududlaridagi partizanlik harakatida toshkentlik Vazik Arkadiyevich Orduzanov ishtirok etdi. Toshkent pedagogika universitetining tarix fanlari nomzodi V.A.Orduzanov 1940-yilda armiya safiga chaqiriladi. Urushga qadar Brest yaqinidagi 592-artelireyia polkida xizmat qilgan. Orssha, Smolensk va Vyazmoy shaharlari mudofaasida ishtirok etadi. 1942-yildan G.M.Linkov rahbarligidagi "Baty'a", keyinchalik A.P.Brinskiyning "Dyadya Petya" partizanlik brigadasida xizmat qiladi. 1943 – 1944-yillardagi ko'rsatgan

jasorqatlari uchun hukumat tomonidan V.A.Ordujanov 1-darajali “Vatan urushi” va “Qizil Yulduz” ordenlari bilan mukofotlangan. 1943-yilning iyulida Rovensk viloyati partiya rahbari Vasil Begma tomonidan 1-darajali “Vatan urushi partizani” medali bilan taqdirlangan [8, –C. 142].

Sovet hududi nemis bosqinidan ozod etilgach, Belorussiya va Ukraina hududidagi partizan otryadlari Chexoslovakiya hududida qaytadan tashkil etila boshlandi. Anchayin partizanlik ishlarida tajribali jangchilar bilan boyigan chexoslovak partizanlari dushmanga qarshi muvaffaqiyatli lurash olib bordilar.

1941-yilning apreli oyida nemislar tomonidan bosib olingan Yugoslaviyaning tarkibiga kiruvchi barcha olti respublika hududida partizanlik harakati avj oldi. Yugoslaviyadagi partizanlar orasida o‘zbekistonlik jangchilardan I.Qayumov, B.Raisov, janglarning birida halok bo‘lgan samarqandlik Lev Kalaantarov va boshqalar bor edi. Ularning deyarli barchasi I.B.Tito boshchiligidagi Yugoslaviya Ozodlik Armiyasining tarkibida jang olib borishadi.

1943-yilda Yugoslaviya hududida 15-dviziya partizanlk otryadi tashkil topadi. Uning tarkibida ruslar, ukrainlar, o‘zbekistonliklar, litvaliklar, gruzin va tatarlar jang olib borishgan. Ularning barchasi asirlikdan qochigan sovet askarları edi. Yugoslaviya Ozodlik Armiyasining 9-korpusi safida 1-sovet zarbdor otryadi tarkibida samarqandlik Lev Kalantarov yugoslav xalqining ozodligiga o‘zining munosib hissasini qo‘shti. L.Kalantarov harakat qilgan otryad Sloveniyaning Jaga – Kobarid shossesida German Gering deb nomlanuvhi nemislarning 3 ta jazo dviziyasiga qarshi kurash olib boradi. Mogoje tog‘liklarida bo‘lgan janglarning birida L. Kalantarov qahramonlarcha halok bo‘ladi [9, –C. 31].

Yugoslaviyadagi 18-internatsional partizanlari safida farg‘onalik Uksanboy Xolmatov faoliyat olib borgan. Dushmanning 150 ta avto kalonnasiga hujum uyishtirib 300 dan ziyod askarlarini yo‘q qiladi. Uning bir o‘zi dushmanning 15 ta mashinasini portlatib yuboradi [10, –C. 269]. Yugoslaviyadagi ko‘rsatgan jasoratlari uchun U.Xolmatov Yugoslaviyaning uch marta ordenlariga sazovor bo‘ladi [11, –B. 179].

1943-yilning kuzida 18-brigadaning 1-sovet zarbdor guruhi tarkibiga Abduraxmon Xolmatov va Xuseyn Zaxirov qo‘shiladi. Jirovsk qishlog‘i uchun bo‘lgan jangda brigada komandiri A.I.Dyachenko yaralangach, Abduraxman Xolmatov rahbarlikni o‘z qo‘liga olib, qurshovni yorib chiqadi [12, –C. 38].

Sloveniya tog‘laridagi qarshilik ko‘rsatish harakati tashkilotlari tarkibida samarqandlik Galina Gritsenko foaliyat yuritadi. Yugoslaviya ozod etilgach G.Gritsenko yugoslav hukumati tomonidan “Jasurligi uchun” medali bilan taqdirlanadi. Shu otryad tarkibi aloqachi bo‘lib jang

qilgan kattaqo‘rg‘onlik Quli Mamadaliyev 1946-yilda yugoslav hukumati tomonidan “1941 – 1945-yillardagi xalq ozodligi, fashistlarga o‘lim” medali bilan taqdirlanadi [13, –C. 269].

Bosniya va Gersogovinaya tog‘laridagi 6-Proletar dviziyasi nomi bilan mashhur bo‘lga partizanlik otryadiga toshkentlik Y.F.Rijov rahbarlik qilgan. 1941-yilda onasiga janglarda bedarak yo‘qolgani to‘g‘risida maktub keladi. Ammo Yuriy Rijkov dushman bilan bo‘lgan jangda og‘ir yaralanib, nemislar tomonidan asirga olinadi. 1944-yilning 22-fevralda 30 nafar maxbus bilan asirlar lageridan qochib yugoslav partizanlari bilan aloqa o‘rnatib partizanlar otryadiga rahbarlik qiladi. Onasiga yugoslav partizanlari orasidan hayot ekanligini bildirib maktub yozadi. Belgradning ozod etilishidagi og‘ir jangarda ishtirok etgan [14, –C. 49-50].

1944-yilning kuzida 20 nafar sovat askarlari harbiy askarlari asirlikdan qochib YOA si tarkibidagi 10-Makedoniya brigdasi tarkibiga kelib qo‘shiladi. Ular Bitola va Prilep shaharlari uchun bo‘lgan janglarda ishtirok etadilar. Ushbu janglarda andijonlik Mamatxon Jalilov ishtirok etadi. 1945-yilning qishida Qizil Armiya Vengriya va Avstriya hududlarini ozod etgach, Yugoslaviyadagi partizanlik harakati safida jang qilgan jangchilar yana armiya safiga olinadi.

1944-yilda Ukraina hududlari ozod etilgach, nemislar bu yerdagи harbiy asirlarni Albaniyaga ishslash uchun olib kela boshladi. Albaniyadagi asirlarning mehnat lagerlaridan qochib, alban partizanlariga qo‘silishi bu yerda ham sovet partizanlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Dastlabki partizanlarga kelib qo‘silgan harbiy asirlar orasida samarqandlik Shasha Arutuyunyan bor edi [15, –C. 92]. Y.G.Sarkisyan rahbarligidagi ushbu otryad Vlyora va Elbasyan tumanlaridagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan. Albaniyadagi sovet partizanlar 1944-yilning ikkinchi yarmi va 1945-yilning boshida Iroq, Suriya va Eron orqali SSSRga qaytariladi.

Bolqon yarim orolidagi partizanlik harakatida sobiq Turkiston legion jangchilar ham muhim ro‘l o‘ynagan. 1944-yilning bahorida Turkiston legion ichida maxsus antifashist tashkiloti tashkil etilgan. Uning vazifasi legionchilarni partizanlar safiga qo‘sish edi. Ushbu tashkilot 1944-yilning mayida gestapo tomonidan fosh etilib, to‘rtta faol a’zosi, jumladan, o‘zbekistonlik Rahmoql Ruxdoyberganov ham qatl etiladi.

1944-yilning yanvarida bir guruuh Turkiston legion jangchilari chernogoriyadagi yugoslav partizanlar harakatini bostirish uchun yuboriladi. ular orasida qorako‘llik Saylixon Fayziyev, toshkentlik Ziyamat Husanov va Maxmudjon Axmedov bo‘lgan Turkiston legionining 28 kishilik otryadi S.Fayziyevning buyrug‘i bilan 1944-yilning 25-mayida nemis komandirlari otib tashlanadi va yugoslav tog‘larida faoliyat olib borayotgan bolgar partizanlari safiga borib qo‘siladi [16, –C. 270].

S.Fayziyev urushgacha kolxozda oddiy ishchi bo‘lib ishlagan. Urush boshlangan vaqtida S.Fayziyev Moldaviya hududida xizmat qilgan. Uman tumanidagi og‘ir janglarda og‘ir yaralanib, dushmanga asirga tushadi. 1943-yilda Turkiston legion safiga qo‘shiladi. Boyana Chobanov rahbarligidagi partizanlar otryadi tarkibiga o‘tib ortyad komandiri vazifasida xizmat qiladi [17, –C. 150]. Ular Bolgariyaning Breznik shahrida dushmanga qarshi kurash olib brogan [18, –C. 6].

Ushbu otryad tarkibida jang qilgan toshkentlik Ziyamat Husanov taqdiri juda qiziqarlidir. 1941-yil Smolensk shahr uchun bo‘lgan janglarda og‘ir yarador bo‘lib gospitalga jo‘natiladi[19, –C. 50]. Sog‘ayib Kursk shahri janggida ishtirok etadi. 1943-yilning 5-iyulida 228-o‘qchi dviziya jangchisi Z.Husanov yana yarador bo‘ladi. Quroldoshlari uni halok bo‘lgan deb uyiga bu haqoda xabar jo‘natiladi. SSSR Oliy Saveti tomonidan jangdagi qahramonligi uchun Z.Husanov o‘limidan keyin Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlanadi [20, –C. 50]. Ammo u og‘ir ahvolda nemislar tomonian asirga olinadi. Keyinchalik Turkiston legion safiga qo‘shiladi. Partizanlik davrida Bolgariya va Italiyada faoliya yuritadi. Priepol shahri uchun bo‘lgan janglarda og‘ir yaralanadi. Italian millatiga mansub ayol tomonidan davolanib oyoqqa turg‘iziladi va Italiyalik partizanlar safiga qo‘shiladi. Urushdan qaytgach Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlanganini bilgan.

XULOSA

Urush yakunlangach Sharqiy Yevropa hamda Bolqon yarim orolini dushmandan ozod etishdagi partizanlik haraktida ishtirok etganlar o‘z vatanlariga qaytariladi. Lekin ularga bo‘lgan munosabatlarda dushmanga asir tushganligi, yokida dushman tomoniga o‘tganligi bahonasida turli xildagi taqiq va taqiblar amalga oshiriladi.

Bunga misol qilib bir necha bora o‘limlardan omon qolib yurtga qaytgan Sovet Ittifoq Qahramoni Z.Husanovga ham xuddi shunday munosabatda bo‘lishgan. Hatto unga berilgan Qahramon unvoni ham olib qo‘yilgan.

O‘zbekistonlik partizanlar ushbu hududlardagi qarshilik ko‘rsatish harakatlari safida turli xildagi qahramonliklar ko‘rsatdilar. Dushmanning ko‘plab texnikasi hamda askarlariga ziyon keltirib, muhim ma’lumotlarni qo‘lga kiritganlar. Ular ko‘plab shaharlarni ozod etishda ishtirok etib, o‘z nomlarini Ikkinchiji Jahon urushi solnomasiga o‘chmas harflar bilan qoldirishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Рахимов М. Партизан сўқмоқлари. Тошкент. Ўзбекистон. 1989. –Б.7
- Джураев Т.Д. В боях за советскую родину. Тошкент. Узбекистан, 1970. –С.260.
- Правда востока . 28 август 1964 г.

4. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.137.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917 – 1991 - yy). Toshkent. Sharq. 2010. –В.179.
6. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.3. Ташкент. Фан. 1985. –С.266.
7. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.141.
8. Джураев Т.Д. Узбекистанцы участники партизанской войны. Тошкент. Узбекистан, 1975. –С.142.
9. Казак В.Н. Побратимы: Советские люди в антифашистской борьбе народов балканских стран. Москва. Мысль. 1975. –С.31.
10. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.3. Ташкент. Фан. 1985. –С.269.
11. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi (1917 – 1991 - yy). Toshkent. Sharq. 2010. –В.179.
12. Казак В.Н. Побратимы: Советские люди в антифашистской борьбе народов балканских стран. Москва. Мысль. 1975. –С.38.
13. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.3. Ташкент. Фан. 1985. –С.269.
14. Казак В.Н. Побратимы: Советские люди в антифашистской борьбе народов балканских стран. Москва. Мысль. 1975. –С.49-50.
15. Казак В.Н. Побратимы: Советские люди в антифашистской борьбе народов балканских стран. Москва. Мысль. 1975. –С.92.
16. Узбекская ССР в годы великой Отечественной войны (1941 – 1945 гг.). Т.3. Ташкент. Фан. 1985. –С.270.
17. Семиряга М.И. советские люди в европейском сопротивлении. Москва. Наук. 1970. –С.150
18. Правда востока. 1963 г., 30 мая.
19. Казак В.Н. Побратимы: Советские люди в антифашистской борьбе народов балканских стран. Москва. Мысль. 1975. –С.66.
20. Бакман Я.И. сыны отечества. Ташкент. Ёш гвардия. 1984. –С.50.